

Jahon iqtisodiyoti va
diplomatiya universiteti
University of world
economy and
diplomacy



O'zbekiston
Respublikasi Tashqi
ishlar vazirligi
Ministry of Foreign
Affairs of Uzbekistan

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI FUQAROLARINING BURCHLARI

Rahmatullayev Axrorjon Azizjon o'g'li

Jahon Iqtisodiyoti va Diplomatiya universiteti xalqaro huquq fakulteti 1-bosqich talabasi.

Tel: (+998)-93-320-12-30. Gmail: ahrorjonrahmatullayev92@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15225901>

Annotatsiya. Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasi konstitutsiyasida mustahkamlab qo'yilgan fuqarolarning burchlari bobida keltirib o'tilgan moddalrmi chuqur tahlil qiladi va moddalrda keltirib o'tilgan burchlar nima uchun bizga kerak ekanligini bilishimizga yordam beradi. O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining huquqiy ongini yanada mustahkamlash uchun katta yordam beradi. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi xalqimizning siyosiy-huquqiy tafakkurining yuksak namunasi bo'lib, unda Yangi O'zbekistonni barpo etish bo'yicha orzu-umidlari va intilishlari aks ettirilgan. Shu boisdan, yangi tahrirdagi Konstitutsiya ijrosini to'liq ta'minlash maqsadida inson va fuqarolarning huquq va erkinliklari amalga oshirilishi kafolatlanishi bir vaqtning o'zida ularni buzishga yo'l qo'yilmaslikni, ya'ni qonunlarda belgilangan burchlar bajarilishini talab etadi. O'zbekiston Respublikasi fuqarolari davlat oldida qanday burchlarni bajaradilar? **59-modda** Barcha fuqarolar konstitutsiya belgilab qo'yilgan burchlarni bajaradilar. **60-modda** Fuqarolar Konstitutsiya va qonunlarga rioya etishga, boshqa insonlarning huquqlari, erkinliklari, sha'ni va qadr-qimmatini hurmat qilishga majburdirlar. **61-modda.** Fuqarolar O'zbekiston xalqining tarixiy, ma'naviy, madaniy, ilmiy va tabiiy merosini asrab-avaylashi shart.

Kalit so'zlar: O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 11-bob:59-modda; 60-modda; 61-modda; 62-modda; 63-modda; 64-moddalar.

DUTIES OF CITIZENS OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

Abstract. This article provides an in-depth analysis of the articles enshrined in the Constitution of the Republic of Uzbekistan in the chapter on the duties of citizens and helps us understand why the duties enshrined in the articles are necessary for us. It will greatly help to further strengthen the legal consciousness of citizens of the Republic of Uzbekistan. The

Constitution of the Republic of Uzbekistan is a high example of the political and legal thinking of our people, which reflects their hopes and aspirations for the creation of a New Uzbekistan. Therefore, in order to fully ensure the implementation of the new version of the Constitution, guaranteeing the realization of the rights and freedoms of man and citizens requires at the same time not to allow their violation, that is, the fulfillment of the duties established by law. What duties do citizens of the Republic of Uzbekistan fulfill before the state? Article 59 All citizens fulfill the duties established by the Constitution. Article 60 Citizens are obliged to comply with the Constitution and laws, to respect the rights, freedoms, honor and dignity of other people. Article 61. Citizens are obliged to preserve and protect the historical, spiritual, cultural, scientific and natural heritage of the people of Uzbekistan.

Keywords: Constitution of the Republic of Uzbekistan, Chapter 11: Article 59; Article 60; Article 61; Article 62; Article 63; Articles 64.

ОБЯЗАННОСТИ ГРАЖДАН РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН

Аннотация. В данной статье дается глубокий анализ статей, закрепленных в Конституции Республики Узбекистан в главе об обязанностях граждан, и помогает нам понять, для чего нам нужны обязанности, упомянутые в статьях. Это будет во многом способствовать дальнейшему укреплению правосознания граждан Республики Узбекистан. Конституция Республики Узбекистан является высоким образцом политико-правового мышления нашего народа, отражающим его мечты, надежды и стремления к созданию Нового Узбекистана. Поэтому для полного обеспечения реализации новой Конституции, гарантирования реализации прав и свобод человека и гражданина необходимо одновременно не допускать их нарушения, то есть исполнять обязанности, установленные законом. Какие обязанности несут граждане Республики Узбекистан перед государством? Статья 59 Все граждане обязаны исполнять обязанности, установленные Конституцией. Статья 60 Граждане обязаны соблюдать Конституцию и законы, уважать права, свободы, честь и достоинство других людей. Статья 61. Граждане обязаны беречь историческое, духовное, культурное, научное и природное наследие народа Узбекистана.

Ключевые слова: Конституция Республики Узбекистан, Глава 11: Статья 59; Статья 60; Статья 61; Статья 62; Статья 63; Статья 64.

Tarixiy, ma'naviy, madaniy, ilmiy va tabiiy meros davlat tomonidan muhofaza qilinadi.

62-modda. Fuqarolar atrof tabiiy muhitga ehtiyotkorona munosabatda bo'lishga majburdirlar.

63-modda. Fuqarolar qonun bilan belgilangan soliqlar va yig'implarni to'lashi shart.

Soliq va yig'img'lar adolatli bo'lishi hamda fuqarolarning konstitutsiyaviy huquqlarini amalga oshirishiga to'sqinlik qilmasligi kerak. **64-modda.** O'zbekiston Respublikasini himoya qilish O'zbekiston Respublikasi har bir fuqarosining burchidir. Fuqarolar qonunda belgilangan tartibda harbiy yoki muqobil xizmatni o'tashga majburdirlar. Ushbu keltirib o'tilgan moddalarni amalda tatbiq etish va fuqarolarning burchlarini chuqur anglash uchun yordam beradi.



O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida fuqarolarning burchlari.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida fuqarolarning huquqlari belgilangani kabi ularning burchlari ham belgilangan. Hamma davrlarda ham odamlar huquqlardan foydalanar ekan ular uchun muayyan burchlar ham yuzaga keladi. Huquq bu davlat tomonidan o'rnatilgan, u tomonidan himoya qilinadigan barcha uchun majburiy bo'lgan xulq-atvor qoidalari tizimi.

Ma'lumki, huquq shaxsga tabiat, jamiyat, davlat tomonidan beriladigan o'z harakatining turi va me'yorini tanlab olish imkoniyati bo'lsa, burch jamiyat va davlat tomonidan berilgan va huquqiy normalarda o'z aksini topgan talablarini bajarish zaruratidir. Burch -kishining biror bir shaxs, oila, jamoa, el-yurt, vatan oldidagi majburiyatini anglatuvchi axloqiy tushuncha

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 11-bobi 6 moddani o'z ichiga oladi bular 59-64- moddalar bo'lib "Fuqarolarning burchlari" deb nomlanadi. Bunday burchlar siyosiy, iqtisodiy, shaxsiy masalalarga taalluqli bajarilishi majburiy xatti-harakatlar hisoblanadi.

Fuqarolarning "Konstitutsiyaviy burchi" yoki "asosiy burchi" bir manoda ishlatiladi va tushuniladi. Asosiy burchlarning bajarilishidan jamiyat a'zolari, davlat birdek manfaatdordir. Yana burchlarning ixtiyoriy va to'la bajarilishi jamiyat rivojlanishiga ijobiy ta'sir qiladi. Vaholanki, konstitutsiyada belgilangan har qanday burch fuqarolar uchun bajarilishi shart hisoblanadi. Xuddi huquqlarsiz burchlar bo'lmagani kabi, burchlarsiz huquqlar ham bo'lmaydi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 11-bobi "Fuqarolarning burchlari" 59-moddadan boshlanadi "Barcha fuqarolar Konstitutsiyada belgilab qo'yilgan burchlarni bajaradilar", deb belgilangan qoida konstitutsiyaviy burchlarni bajarilishi shart ekanligini ko'rsatib, barcha konstitutsiyaviy burchlarni bajarilishini ta'minlashga qaratilgan umumiy va rahbariy qoida hisoblanadi.

Chunki konstitutsiyamizda belgilanganidek, konstitutsiya mamlakatning butun hududida oliy yuridik kuchga ega, to'g'ridan-to'g'ri amal qiladi va yagona huquqiy makonning asosini tashkil qiladi. Ushbu norma konstitutsiya normalarining bajarilishi majburiy hisoblangani kabi konstitutsiyada belgilangan burchlarning bajarilishi ham majburiylikni ko'rsatadi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 60-moddasida esa bu burch yanada aniqlashtirilgan va doirasi kengaytirilgan. Unga asosan, "Fuqarolar Konstitutsiya va qonunlarga rioya etishga, boshqa kishilarning huquqlari, erkinliklari, sha'ni va qadr-qimmatini hurmat qilishga majburdirlar".

Demak, birinchidan, har bir fuqaro, nafaqat, konstitutsiyaga, balki barcha qonunlarga bo'ysunishga majbur. Bu qonuniylik prinsining mazmun va mohiyatiga mos kelib, ana shu prinsning amalga oshirishini ta'minlashni nazarda tutadi. Ikkinchidan, har bir kishi - fuqaro boshqa kishilarning huquqlarini, erkinliklari, sha'ni va qadr-qimmatini hurmat qilishga majburdir.

Bu konstitutsiyaviy burch fuqarolarga, fuqaroligi bo'lmagan shaxslarga va ajnabiy fuqarolarga ham birdek bajarilishi shart bo'lgan burch hisoblanadi. Chunki O'zbekiston hududida yashayotgan fuqarolardan tortib fuqaroligi bo'lmagan shaxslar va ajnabiy fuqarolar ham konstitutsiya va qonunlarni ustunligini anglagan holda ularga birdek bo'ysunishi majburiy hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 61-moddasida "Fuqarolar o'zbek xalqining tarixiy, ma'naviy, madaniy, ilmiy va tabiiy merosini asrab avaylashi shart ekanligi belgilab o'tilgan. Tarixiy, manaviy, madaniy ilmiy va tabiiy meros davlat tomonidan himoya qilinadi".

O'zbekiston xalqining tarixiy yodgorliklari, madaniy va ma'naviy merosi butun xalqining milliy boyligidir. Bu milliy boylar davomida yaratildi va har birimiz ajdodlarimizning tarixiy va madaniy merosini saqlab qolishimiz lozim. Bu sohada qator qonunlar qabul qilingan bo'lib, shular jumlasiga "Madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish to'g'risida"gi qonun ham kiradi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 62-moddasida "Fuqarolar atrof tabiiy muhitga ehtiyotkorona munosabatda bo'lishga majburdirlar" degan norma belgilab qo'yilgan.

Konstitutsiyada O'zbekiston ekologik taraqqiyot strategiyasining asosiy qoidalari, ekologik va aholining ekologik xavfsizligiga doir talablar belgilangan bo'lib, ushbu siyosiy-huquqiy hujjat mamlakatimizda atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan foydalanish bo'yicha eng muhim va asosiy qoidalarni belgilab beradi.

Shuningdek, fuqarolar atrof tabiiy muhitga ehtiyotkorona munosabatda bo'lish "O'zbekiston Respublikasi tabiatni muhofaza qilish to'g'risida"gi Qonunida o'z aksini topgan bo'lib, ular fuqarolar zimmasiga quyidagi burchlarni yuklaydi.

- **Tabiiy resurslaridan oqilona foydalanish;**
- **Tabiiy boyliklarni asrab avaylash;**
- **Tabiiy obyektlari bilan bog'liq bo'lgan madaniy merosini saqlab qolish.**

Bugungi kunda inson hayoti uchun tabiatni yo'q qilish, havo, yer va suvni ifloslantirishdek katta xavf-xatar yo'q. Tabiatni qutqarar ekanmiz, biz o'z-o'zimizni halokatdan halos etamiz.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 63-moddasida "Fuqarolar qonun bilan belgilangan soliqlar va mahalliy yig'implarni to'lashi shart degan norma belgilangan. Ushbu norma barcha fuqarolarga soliq va boshqa yig'implarni o'z vaqtida to'lash majburiyatini yuklaydi.

Soliq va yig'im tushunchalariga soliq kodeksining 16-moddasida ta'rif berilgan. Soliq bu O'zbekiston Respublikasining davlat budjetiga yoki davlat maqsadli jamg'armalariga to'lanadigan majburiy beg'araz to'lov tushuniladi. Yig'im deganda budjet tizimiga soliq kodeksida yoki boshqa qonunchalik hujjatlarida belgilangan majburiy to'lov tushuniladi, bu yig'imning to'lanishi uni to'lovchi shaxsga nisbatan vakolatli organ yoki uning mansabdor shaxsi tomonidan yuridik ahamiyatga ega harakatlarni amalga oshirish, shu jumladan unga muayyan huquqlarni yoxud ruxsat etuvchi hujjatlarni berish shartlaridan biri bo'ladi. Yig'implarni joriy etish, hisoblab chiqarish va to'lash tartibi Soliq kodeksida hamda boshqa qonunchilik hujjatlarida belgilanadi.

Yig'imning asosiy xususiyati shundaki, uni to'laganlik uchun davlatning qaysidir organlari fuqarolarning manfaatlarini uchun harakat qiladi. Qo'shimcha sifatida shuni aytish joizki, soliq va yig'implarni o'z vaqtida to'lamaslik yoki to'lashdan bo'yin tovlash uchun qonunchiligimizda jinoiy va ma'muriy javobgarliklar mavjud.

Fuqarolarning konstitutsiyada belgilangan burchlaridan yana biri bu harbiy xizmatni o'tash va vatanni himoya qilish majburiyatidir. Ushbu normaga ko'ra, **konstitutsiyamizning 64-moddasida belgilanganidek, O'zbekiston Respublikasini himoya qilish O'zbekiston Respublikasi har bir fuqarosining burchidir.** Fuqarolar qonunda belgilangan tartibda harbiy yoki muqobil xizmatni o'tashga majburlar. O'zbekiston Respublikasini o'zining vatani deb hisoblagan har bir inson uni himoya qilishi nihoyatda zarur va tabiiy talabdir. Mazkur burchning mazmuni:

Birinchidan, O'zbekiston Respublikasi mustaqilligini himoya qilish;

Ikkinchidan, O'zbekiston Respublikasi hududiy yaxlitligini himoya qilish;

Uchinchidan, respublikaning barcha sohalari bo'yicha manfaatlarini himoya qilishni;

To'rtinchidan, O'zbekiston aholisining tinch va osoyishta, xavfsiz va faravon hayot kechirishi uchun zarur bo'lgan siyosiy, iqtisodiy, huquqiy, madaniy, harbiy tadbirlarda faol qatnashish kabi talablarni o'z ichiga oladi. Fuqarolarning bu asosiy burchi boshqa davlatlarning doimiy yoki vaqtincha O'zbekistonda yashab turgan fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan insonlarga taalluqli emas. Chunki ular O'zbekiston Respublikasida harbiy xizmatga yoki harbiy tayyorgarlikka jalb qilinmaydi. Harbiy xizmat O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining Qurolli

Kuchlar safida umumiy harbiy majburiyatni bajarish borasidagi davlat xizmatining alohida turidir.

Harbiy xizmatning quyidagi turlari joriy etiladi:

- **Muddatli harbiy xizmat;**
- **Safarbarlik chaqiruvi rezervidagi harbiy xizmat;**
- **Kontrakt bo'yicha harbiy xizmat;**
- **O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari safida harbiy xizmatni o'tagan rezervchilar xizmati.**

Xulosa

Har bir O'zbekiston Respublikasining fuqarosi konstitutsiyasida belgilab qo'yilgan burchalarni bajarishga majburdirlar. Konstitutsiyada insonning erkinliklarini cheklaydigan ma'lumot yoki tabiatga nisbatan yomon munosabatda bo'lish keltririlmagan ayrim odamlar konstitutsiyada keltirilgan moddalarni noto'g'ri talqin qilishi oqibatida ko'plab insonlar konstitutsiga yomon munosabtda bo'lishmoqda ushbu maqolada fuqarolarning burchlarini tushinish uchun yetarlicha ma'lumot keltirib o'tildi.

REFERENCES

1. <https://qoraqalpoq.adliya.uz/uz/news/detail.php?ID=67018>
2. https://uza.uz/oz/posts/konstitutsiyaviy-burchlar-nimalardan-iborat_546813
3. <https://lex.uz/docs/-6445145>
4. https://constitution.uz/oz/pages/Ekologik_munosabatlar